

**Ortiqova Yulduz Akram qizi**

**Tuzuvchi:**

**“Shahrisabz davlat pedagogika fakulteti pedagogika instituti”**

**“Maktabgacha ta’lim” 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda ta’lim sohasiga islohotlar olib borish,o’sib kelayotgan yosh avlodni sifatli ta’lim olishlarini ta’minalash,kadrlar salohiyatini oshirish,ularni o’z kasbining yetuk mutaxassisi qilib tayyorlashdan iborat.

**Tayanch so’zlar:** “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tog’ridagi “ qonun,pedagog-xodimlar,bola qamrovi,davlat,nodavlat MTT,islohotlar, ta’lim tizimi,sifatli ta’lim berish,kadrlarni o’qitish va ularni qayta tayyorlash.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasi alohida e’tibor qaratilayotgan jabhalaridan biri bo’lib, ta’lim rivoji, uning ravnaq topishi, o’sib kelayotgan yosh avlodni sifatli ta’lim va tarbiya olishi uchun zamin yarata oluvchi jihatlaridan biridir. Xususan,2020-yil 19-may “ Ta’lim to’g’risi” dagi qonunga o’zgartirish kiritilishi ham so’zimizning yaqqol aksidir.

Sir emaski,qonun doirasi asosida, mamlakatimizda yashab kelayotgan har bir fuqaro millati,tili,dini,irqi,ijtimoy kelib chiqishi, e’tiqodidan qatiy nazar, ta’lim olish huquqiga ega.Yurtboshimiz tomonidan, Maktabgacha ta’lim,umumiy o’rta ta’lim va o’rta maxsus ta’lim, professional ta’lim,oliy ta’lim,oliy ta’limdan keyingi ta’lim,hamda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish,maktabdan keyingi ta’limga ham e’tibor qaratilmoqda.

Shu o’rinda aytib o’tish joizki,Yurtboshimiz tomonidan, Maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor qaratilib,2019-yil 22-oktabrda o’zgartirish kiritilildi.” Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risi “dagi qonun ishlab chiqilib,2017-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta’lim Vazirligi “tashkil etildi.

Shu kundan boshlab , mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim tizimiga qator islohotlar olib borildi.Eng avvalo,bu ta’lim sohasini “Kadrlar bilan taminlash” masalasi dolzarb muammolardan biri ekanligi ,Maktabgacha ta’lim pedagog xodimlarni o’qitish ,qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish kabi taklif va mulohazalarning amaldagi ijrosi ta’minalash kerakligi davlatimiz rahbari tomonidan ta’kidlab o’tildi.Oliy ta’lim tizimida , qa’bul kvotalari oshirish ham mazkur muammoga yechishim topishga ilk qadam bo’ladi.

Bolalarga sifatli ta’lim berish ,ularning ongi,tafakkurini shakllantirish , so’z boyligini oshirish, bolalarda uchraydigan har qanday ruhiy kasalliklarni aynan,jamoa bo’lib,bartaraf etishga qaratilish maqsadida ham Maktabgacha ta’limda bola qamrovini oshirishga qaratilgan masalalar, kunning dolzarb muammolaridan biri bo’lib

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

oldi.Chunki bola 5 yoshgacha bo'lgan vaqt mobaynida atrof -olam haqidagi bilimlarini qariyb,70%ni egallaydi.

Shu sababdan bola qamrovi 2017-yilda 23%ni tashkil etgan bo'lsa ,bu ko'rsatgich 2021- yilda 62% ga yetdi.Maktabgacha ta'limda 2023-yilga qadar ,bola qamrovi 75%ga yetkazish maqsad qilib olindi.Buning uchun 600 milliard so'm subsidia ajratildi.2031-yilga qadar bola qamrovi bundanda yuqori qilish ko'zda tutilmoqda.

Bolalarga sifatli ta'lim berish maqsadida “Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalarning rivojlanishiga qoyiladigan Davlat talablari” , “Davlat ta'lim standarti”, “Maktabgacha ta'lim tashkilotining jihozlanishi”,qisqa muddatli guruuhlar uchun ishlab chiqilgan “Ilm yo'li “variativ dasturi kabi bir qator dasturlar ishlab chiqildi.

Takidlab o'tish joizki, mamlakatimizda ta'lim sohasiga ,ayniqsa Maktabgacha ta'lim tizimiga nisbatan e'tibor juda yuqori.Yurtboshimizning tashabbusi bilan davlat,nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti,davlat xususiy sherikchiligi asosida hamda uyda ham maktabgacha ta'lim tashkilotini ochishga ruxsat berilishi,bo'sh yotgan yerlar unumli foydalanish uchun tadbirkorlarga bo'lib berilishi,o'z uyidan maktabgacha ta'lim tashkilotini ochgan shaxslarga davlat soliqlaridan ozod etilishi, Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati uchun barcha shart- sharaoitlar yaratib berilayotganni ham quvonarli hol ,albatta.

Qator yillar davomida Maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor qaratilmaganligi bois ,bolalarning mifik talimiga moslashishi qiyin kechgan.Bu jarayon nafaqat ularning rivojlanishiga,balki ta'lim olishiga ham qator muammolarni keltirib chiqargan.

Rasmiy malumotlarga ko'ra , O'zbekistonda 1 600 000 dan ortiq o'gil va qiz bolalar ,maktabgacha yoshdag'i bolalarning 70%ga yaqini, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan.Bu esa bolalar hayotining ilk kunlaridan boshlab, ularning bilim olishiga, o'qish, yozish,savodxonlik malakalarini shakillanmay qolishiga sabab bo'lib qolayotgan edi.

2017-yili butun dunyo bo'y lab Maktabgacha ta'limga davlat byudjetining ta'limga ajratilgan qismdan 6,6% yo'naltirilgan bo'lib,ayni chog'da ma'lumotlar mavjud bolgan mamlakatlarning salkam 40%da ta'lim uchun ajratilgan byudjet ulushidan aynan Maktabgacha ta'lim ga ajratilgan nisbatlari 2% ham tashkil qilmagan. O'zbekiston Maktabgacha ta'lim ni bunday sarmoyalash 11%ni tashkil etadi.Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda davlat lar byudjetlarida ta'lim olish uchun ajratilgan ulushlaridan 11,3%ni Maktabgacha ta'lim ga yo'na ltirdilar.Xususan , Maktabgacha ta'lim sohasiga pedagoglarning yetishmasligi yana bir muammolardan biri edi .

2030-yilga qadar butun dunyoda Maktabgacha ta'lim bilan qamrov boyicha ko'zlangan darajaga erishish uchun jami 9,3%mln yangi Maktabgacha ta'lim pedagoglar lozim bo'ladilar.Pedagog xodimlar shaharlardagi nisbati 25: 1 bo'lsa,qishloqlarda esa bu ko'rsatgich 5: 1 ni tashkil etadi.

Yuqorida biz ko'rib chiqqanimizdek, Maktabgacha ta'lim sohasiga nafaqat O'zbekiston ,balki butun dunyo ushbu ta'lim sohasiga e'tibor qaratmog'i lozim.Aholi

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

o'rtasida savodsizlikni tugataish,qashshoqlikka chek qo'yish maqsadida ham bu ta'lim sohasini rivojlanishi e'tiborni qaratish ,dasturlar,metodik ishlari olib borish ,yosh pedagog-mutaxassislarini bilim saviyasini oshirish, Maktabgacha ta'lim rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart- sharoitlarni yaratish lozim.Shundagina biz kutgan ,ibn Sino,Beruniy, Amir Temur hamda Boburlarni yetishib chiqishiga sababchi bo'lamiz!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1."Maktabgacha pedagogika"Sh.Sodiqova T.2013.
- 2.YUNESEF " O'zbekistonda Maktabgacha ta'lim"sohasida bola qamrovi nomli rasmiy maqola." T.:2020